Iqtisodiy sohalarga matematik modellarni tadbiq qilish muhim!

2020-yil 2-iyul kuni O'zR FA Matematika instituti va O’zbekiston Milliy universiteti Iqtisodiyot fakulteti o’rtasida o’zaro ilmiy hamkorlik aloqalarini yo’lga qo’yish bo'yicha uchrashuv o'tkazildi.

Unda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ijtimoiy, iqtisodiy sohalarga matematik modellarni tadbiq qilish ko’lamini kengaytirish bo’yicha masalalar muhokama qilindi. Shuningdek, valyuta kursini o’zgarishlar dinamikasi asosida qisqa va uzoq muddatli prognozlashtirish, sohalar bo’yicha kredit tizimini prognozlashtirish, tijorat banklarida pul oqimlarini prognoz qilish va barqaror resurs bazasini shakllantirish, kredit va unga hisoblangan foizlarni to’lashda muqobil variantlarini taqdim etuvchi dasturiy ta’minot yaratish kabi sohalarda o’zaro hamkorlik qilishga kelishildi.